



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 18 aprel, № 75 (8698)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



XUSUSIYLASHTIRISH DASTURI BO'YICHA AXBOROT BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga 2024-yilgi xususiyashtirish dasturi va uning ijrosini samarali tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida axborot berildi.

Shu yil 16-yanvar kuni iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tgan videoselektor yig'ilishida Vazirlar Mahkamasiga yangi xususiyashtirish dasturini tayyorlash vazifasi qo'yilgan edi. Shunga asosan davlat ishtirokidagi korxonalarining ulushlari va ko'chmas mulk obyektlari samaradorlik jihatidan tahlil qilinib, yangi dastur ishlab chiqildi.

Xususan, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish maqsadida ommaviy savdolariga chiqariladigan 250 ga yaqin ulushlar ro'yxati, davlat ishtirokidagi korxonalarining qariyb mingta ko'chmas mulk obyekti ro'yxati, mahalliy fond bozorida aksiyalarning ommaviy taklifi o'tkaziladigan 12 ta korxonalar ro'yxati shakllantirildi.

Ilgari savdoga qo'yilgan ayrim inshootlar sotilishida ham muammolar bor. Buni jadallashtirish va iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish maqsadida qator yengilliklar belgilanmoqda.

Masalan, davlat aktivlari 3 oyda sotilmaganda (Toshkent shahri va viloyat markazlari bundan mustasno) ularning boshlang'ich bahosi 10 foizgacha bosqichma-bosqich pasaytiriladi. 2024-yil 1-yanvargacha auktsion orqali ijaraga olganiga kamida 5 yil bo'lgan va majburiyatlarini bajargan tadbirkorlarga davlat mulkini baholangan qiymatda sotib olish taklifi etiladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari 3 oyda sotilmaganda (Toshkent shahri va viloyat markazlari bundan mustasno) boshlang'ich qiymati 30 foizgacha, 6 oyda sotilmaganda 10 foizgacha pasaytiriladi. To'lovlarining 15 foizini 3 oy muddatda, qolgan qismini 10 yilgacha muddatda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati yaratiladi.

Xususiyashtirish dasturlariga

kitritilgan ko'chmas mulklarning kadastr hujjatlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun to'lovlarni Xususiyashtirish jamg'armasi hisobidan amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Shuningdek, yangi dastur doirasida, tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyati uchun hamda xalqaro avtomobil yo'llari bo'yida savdo va servis obyektlarini joylashtirish uchun savdolariga chiqariladigan yer uchastkalarining ro'yxatlari shakllantirildi hamda ularni savdoga chiqarish soddalashtirildi.

Bu borada ham yangi tartiblar belgilash taklif etilmoqda. Jumladan, master-reja asosida xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llari bo'yida joylashgan yer uchastkalari zamonaviy servis va savdo-maishiy obyektlarni qurish uchun auksionga chiqariladi. Sotilgan yer uchastkalari xaridoriga cheklolovsiz rasmiylashtirib beriladi.

Yig'ilishda davlat ishtirokidagi yirik korxonalarini transformatsiya qilish va xususiyashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, ularni jadallashtirish bo'yicha takliflar muhokama qilindi. Agrar sohaga xizmat ko'rsatuvchi davlat ishtirokidagi korxonalarini xususiyashtirish chora-tadbirlari ham ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari bu jarayonlarni jadallashtirish, xususiyashtirilgan bino-inshootlar negizida tadbirkorlikni rivojlantirib, ko'proq ish o'rinlari ochish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

O'z sohasida xususiy sektor ulushini muttasil oshirib borish, samarasiz foydalanilayotgan va bo'sh turgan aktivlarni sotish mahalliy hokimlik va tarmoq rahbarlarining asosiy vazifalaridan bo'lishi kerakligi ko'rsatib o'tildi.

O'z.A.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN TOJIKISTONGA BORADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan 18-19-aprel kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Dushanbe shahrida oliy darajadagi muzokaralar, qator ikki tomonlama uchrashuv va qo'shma tadbirlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Kun tartibidan O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shniçilik, strategik sheriklik va ittifoqçilik munosabatlari yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari o'rin olgan.

Savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika, transport va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari

surishga alohida e'tibor qaratiladi, hududlar o'rtasidagi aloqalarni, madaniy-gumanitar va turizm almashinuvlarini kengaytirish masalalari ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston va Tojikiston yetakchilari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashadilar.

Sammit yakunlari bo'yicha ikki tomonlama hujjatning salmoqli to'plamini qabul qilish ko'zda tutilmoqda.

O'z.A.



O'zbekiston — Tojikiston: Yaxshi qo'shniçilik, keng ko'lamli sheriklik yanada mustahkamlanmoqda

Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Emomali Rahmonning taklifiga binoan 18-19-aprel kunlari davlat tashrifi bilan Tojikistonda bo'ladi.

Xalqlari tarixiy va madaniy jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan eng yaqin qo'shniçilar — O'zbekiston va Tojikiston ikki tomonlama munosabatlarni strategik sheriklik va ittifoqçilik darajasiga olib chiqdi. 2022-yil 3-iyun kuni Tojikiston Prezidentining O'zbekistonga rasmiy tashrifi chog'ida mamlakatlarimiz o'rtasidagi tarixiy hujjat — Abadiy do'stlik va ittifoqçilikni mustahkamlash to'g'risidagi tarixiy deklaratsiya imzolandi.

O'zaro manfaatli samarali

hamkorlikni rivojlantirishda davlatlarimiz rahbarlari o'rtasida o'rnatilgan ishonçli va yaqin do'stona munosabatlar, ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar doirasidagi konstruktiv siyosiy muloqot muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev so'nggi olti yil ichida Tojikistonga jami ikki marta, ya'ni davlat (2018-yil mart) va rasmiy (2021-yil iyun) tashriflari bilan bordi. O'z navbatida, Tojikiston yetakchisi ham 2018 va 2022-yillarda davlat va rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga

kelgan. Ushbu tashriflarning samarali natijalari mamlakatlarimiz xalqlari o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik, iliç va do'stona munosabatlarni mustahkamlashga kuchli turki berdi.

Shu bilan birga, ikki davlat rahbarlari ko'p tomonlama muhim forumlar — Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari, MDH, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitlari, "Markaziy Osiyo+" formatlari va boshqa platformalar doirasida ham muntazam ravishda uchrashib turadi.



Hoson PATDIOEV o'lgan surati.

DO'STU QARDOSHDIR AZALDAN O'ZBEGIM TOJIK BILAN

Dini, urf-odatlar, to'yu marosimlari, qarashlari va intilishlari bir-biriga mushtarak bu xalqlar o'rtasidagi do'stlik va qardoshlik ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Bu qadimiy va azaliy qardoshlik rishtalari bugun ham bardavom. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo, logistika, o'zaro tovar ayirboshlash hamda ishbilarmonlik sohasidagi hamkorlik bugungi kunda yuqori darajaga ko'tarilgan, desak, mubolag'a emas.

Biznes forumi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ushbu mamlakatga davlat tashrifi arafasida Dushanbe shahrida o'tkazilgan O'zbekiston — Tojikiston biznes forumi ham tobora mustahkamlanib borayotgan hamkorlikning yorqin ifodasi bo'ldi. Tojikiston Bosh vaziri o'rinbosari Usmonali Usmonzoda va O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri

o'rinbosari Jamshid Xo'jayev hamraislik qilgan forumda ikki mamlakat ishbilarmon doiralari 600 dan ziyod vakillari, vazirlik, tarmoq birlashmalari va boshqa idoralar vakillari jam bo'ldilar.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar xususida gap ketganda, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi so'nggi sakkiz yilda 3 barobar oshganini ko'rsatib o'tish mumkin.



QUR'ONI KARIMNING NOYOB NUSXASI ZOMINDAGI MASJIDGA TOPSHIRILDI

Ma'lumki, muqaddas yurtimiz zaminida asrlar davomida ko'plab tarixiy, ilmiy va diniy manbalar saqlanib keladi. Islom olamida "Katta Langar Qur'oni" nomi bilan mashhur bo'lgan, Qur'oni karimning eng mo'tabar nusxalaridan biri hisoblangan noyob qadimiy qo'lyozma shular jumlasidir. Uning sahifalari taqdir taqozosiga ko'ra Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida, shuningdek, Toshkent va Buxoro shaharlarida saqlanmoqda.

Mazkur qo'lyozmaning yurtimizga oid tarixi va taqdiri haqida qisqacha so'z yuritilgan bo'lsak, ular, avvala, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi Katta Langar qishlog'i bilan bog'liq ekanini qayd etish zarur. Muqaddas kitob dastlab 1520-yilda qurilgan, xalq orasida "Langar ota ziyoratgohi" deb yuritiladigan maqbara yaqinidagi masjidida saqlanib kelgan. Chorizm hukmronligi davrida esa Qur'on sahifalarining katta qismi Rossiyaga olib ketilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra 1930-yillarda mahalliy

ulamolar qatag'on qilinishlaridan avval qo'lyozmaning qolgan sahifalarini shu qishloqlik Abdulla ismli temirchi ustaga qoldirib ketishgan. Bu fidoyi inson kitob sahifalari sovet maxsus xizmati xodimlari qo'lga tushmasligi uchun uni qishloqdoshlaridan biri — befarzand Qulfi momoning xonadoniga yashirib qo'yg'an.

Keyinchalik qo'lyozma sahifalari ancha vaqt katta langarlik To'xta bobo Rajabovning uyida saqlangan. KGB xodimlari uzoq urinishlardan so'ng 1983-yili turli tahdid va zug'umlar bilan qo'lyozmaning bir qismini olib

ketadi. 1990-yillarda masjidida "Katta Langar Qur'oni"ning 12 ta sahifasi qolgan ma'lum bo'ladi. Bugungi kunda mazkur sahifalar Toshkentda, O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda.

Ushbu qo'lyozmaning yana bir sahifasi Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasida, ikki sahifasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat kutubxonasida, boshqa bir sahifasi esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Shu tariqa mazkur qo'lyozmaning jami 97 sahifasi (81 tasi Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburgdagi Sharq qo'lyozmalari institutida, 16 tasi esa O'zbekistonda) saqlanmoqda.

Mazkur kitobni tadqiq etgan rus sharqshunos olimi Yefim Rezvan ma'lumotiga

ko'ra qo'lyozmaning yaratilish tarixi VIII asrning oxirgi choragi — arab til grammatikasi qoidalari shakllangan davrga to'g'ri keladi. Ushbu tadqiqotchi 1998-yilda mazkur qo'lyozma haqida yirik xalqaro ilmiy jurnalda maqola e'lon qiladi. Oradan ko'p o'tmasdan fransuz olimi F. Derosh Ye. Rezvan bilan bog'lanib, qo'lyozmaning boshqa sahifalari O'zbekistonda saqlanishini ma'lum qiladi. Mamlakatimiz hukumatining sa'y-harakati bilan 1999-yilda "Katta Langar Qur'oni"ni o'rganish bo'yicha maxsus ilmiy ekspeditsiya tashkil etiladi. O'zbek, rus, fransuz va boshqa xorijlik olimlardan iborat ekspeditsiya a'zolari izlanishlar davomida bir qator qiziqarli ma'lumotlarni aniqlashga erishadilar.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

BINO VA INSHOOTLARNING ZILZILABARDOSHLIGINI OSHIRISH HAMDA SEYSMIK XAVFNI MONITORING QILISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

So'nggi yillarda dunyoda talafoti zilzilalar soni ortib, ular aholi hayoti va mamlakatlarining ijtimo-y-iqtisodiy infratuzilmalariga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganligi sababli seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini doimiy takomillashtirib borish doirasida mavjud va qurilayotgan bino-inshootlarning seysmik mustahkamligini ta'minlash, zilzilani prognozlash, monitoring qilish hamda unga tayyorgarlik ko'rishda davlat organlari va tashkilotlarining o'zaro aloqalarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasiga zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish, bino va inshootlarning zilzilabardoshligini yanada oshirish, kuchli zilzilalarni prognoz qilishning yangi usullarini ishlab chiqish va ularga tayyorgarlik ko'rishning zamonaviy tizimini yaratish maqsadida:

1. 2024-yil 1-iyundan boshlab:

MSK-64 shkalasi bo'yicha 8 va undan yuqori ballik seysmik faol zonalarda yangi qurilishi rejalashtirilayotgan 5 qavatdan yuqori tibbiyot obyektlari hamda 9 qavatdan yuqori binolarni aktiv seysmik himoyalash qurilmalari, shu jumladan, seysmoizolyatsiya va demper uskunalar bilan loyihalash amaliyoti yo'lga qo'yilsin;

aktiv seysmik himoyalash qurilmalarini o'rnatish qurilish ishlariga mas'ul bo'lgan buyurtmachi tashkilotlar tomonidan moliylashtirilishi belgilansin.

Mazkur bandning to'liq va so'zsiz ijrosini ta'minlash uchun mas'ullar etib Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (B.Zakirov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORIBINO VA INSHOOTLARNING ZILZILABARDOSHLIGINI OSHIRISH HAMDA
SEYSMIK XAVFNI MONITORING QILISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

2. 2024-yil 1-iyuldan boshlab: yangi qurilishi rejalashtirilayotgan xavfli omili III-IV toifa bo'lgan obyektlarga bino va inshootlarning yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring qilish uskunasi o'rnatish majburiy etib belgilansin;

bino va inshootlarning yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring qilish uskunalaridan olinadigan ma'lumotlarning yagona bazasini yuritish orqali monitoring qilish tartibi joriy etilsin.

Mazkur band doirasida bino va inshootlarning yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring qilish uskunalarini nazorat qilish uchun Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (B.Zakirov), ulardan olinadigan ma'lumotlarning yagona bazasini yuritish va monitoring qilish uchun Toshkent arxitektura-qurilish universiteti (B.Tulaganov) mas'ul etib belgilansin.

3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2024-yil 1-iyuldan boshlab:

MSK-64 shkalasi bo'yicha 5 va undan yuqori ballik yer silkinishi sodir bo'lganda bino va inshootlarning holati bo'yicha yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring qilish uskunalaridan olingan ma'lumotlar tezkor ravishda tahlil qilinadi; bino va inshootlarda aniqlangan xavf bo'yicha zudlik bilan O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashiga (keyingi o'rinlarda — Respublika kengashi) axborot kiritiladi;

Respublika kengashi uch kun muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda zilzila natijasida aniqlangan bino va inshootlarning zaif nuqtalarini mustahkamlash va xavfni bartaraf etish choralari belgilab, ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Mazkur bandedda nazarda tutilgan tartibning yo'lga qo'yilishi va bir maromda ishlashini ta'minlash uchun mas'ul etib Respublika kengashi (A.Aripov) belgilansin.

4. Bino va inshootlar hududlarning seysmik faolligiga muvofiq ravishda qurilishni tashkil etish maqsadida:

2024-yil 1-iyulga qadar respublikaning barcha tuman va shaharlar hududlari kesimida mintaqaviy akselerogrammalar raqamlashtirilishida ularning onlayn bazalari shakllantirilsin;

2024-yil 1-avgustdan boshlab xavfli omili III-IV toifa bo'lgan obyektlarni hududning zilzilalar kuchini ko'rsatib beruvchi mintaqaviy akselerogrammalar bazalaridan kelib chiqib loyihalash va qurish tartibi joriy etilsin.

Mazkur band doirasida mintaqaviy akselerogrammalarni raqamlashtirish uchun mas'ul etib Fanlar akademiyasi (B.Yuldashev) va Favqulodda vaziyatlar vazirligi (A.Qo'ldashev), bino va inshootlarni mintaqaviy akselerogrammalarga muvofiq loyihalash va qurish ishlarini nazorat qilish uchun Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (D.Adilov) mas'ul etib belgilansin.

5. 2024-yil 1-iyuldan boshlab yangi qurilishi rejalashtirilayotgan xavfli omili III-IV toifa bo'lgan obyektlarda gaz va elektr tarmoqlarini kuchli zilzila paytida avtomatik bloklash tizimi bilan loyihalash tartibi joriy etilsin.

Bunda seysmik faol zonalarda yangi qurilishi rejalashtirilayotgan xavfli omili III-IV toifa bo'lgan obyektlarning loyiha-smeta hujjatlari ularda kuchli zilzila sodir bo'lganda gaz va elektr tarmoqlarini

avtomatik bloklash tizimi mavjud bo'lgan hollardagina shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilishi belgilansin.

Mazkur bandning to'liq va so'zsiz ijrosini ta'minlash uchun mas'ul etib Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (B.Zakirov) belgilansin.

6. Sodir bo'lgan zilzilalar va fasllardagi namgarchiliklar ta'siridan cho'kkan hamda deformatsiyalar paydo bo'lgan bino va inshootlarni mustahkamlash ishlariga ilg'or, zamonaviy va xavfsiz yondashuvlarni joriy etish maqsadida:

2024-yil 1-iyulga qadar texnik holati qoniqarsiz deb topilgan mavjud bino va inshootlarni "kompensatsion inyeksiya texnologiyasi orqali mustahkamlash va deformatsiyani oldingi holatiga qaytarish" uslubini orqali qayta tiklash ishlarini eksperiment tariqasida amalga oshirilsin;

2024-yil 1-oktabrga qadar eksperiment natijalari asosida bino va inshootlar paydevorini mustahkamlash va deformatsiyalarini bartaraf etishda yer ostidan "kompensatsion inyeksiya texnologiyasi orqali mustahkamlash va deformatsiyani oldingi holatiga qaytarish" uslubini amaliyotga to'liq joriy etish choralari ko'rilin.

Mazkur band doirasida "kompensatsion inyeksiya texnologiyasi orqali mustahkamlash va deformatsiyani oldingi holatiga qaytarish" uslubini amaliyotga joriy etish uchun mas'ul etib Toshkent arxitektura-qurilish universiteti (B.Tulaganov), eksperiment uchun obyektlarni taqdim etishga mas'ul etib Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiya (K.To'laganov) belgilansin.

7. Qurilishda davlat nazorati sifatini oshirish maqsadida 2024-yil 1-iyuldan boshlab yangi qurilayotgan obyektlarning xavf-xatar toifasini hamda qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy inspektorlarning ish tajribasini inobatga olgan holda davlat nazoratini amalga oshirish ishlarini tashkil etilsin.

Mazkur bandning to'liq va so'zsiz ijrosini ta'minlash uchun davlat nazoratini amalga oshirishda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish hududiy inspeksiya shtat birliklari sonini qayta ko'rib chiqish uchun mas'ul etib Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiya (K.To'laganov) belgilansin.

8. Quyidagilar:

Seysmik xavfsizlikni ta'minlash hamda bino va inshootlarning zilzilabardoshliligini oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" (keyingi o'rinlarda — "Yo'l xaritasi") 1-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahri bo'yicha seysmik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan hududiy chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalarini (keyingi o'rinlarda — hududiy chora-tadbirlar rejalarini) 2 — 15-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

9. "Yo'l xaritasi" va hududiy chora-tadbirlar rejalarida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan:

"Yo'l xaritasi" bo'yicha — tegishli davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlariga;

hududiy chora-tadbirlar rejalarini bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlariga shaxsiy mas'uliyat yuklatilsin.

Respublika kengashi davlat organlari va tashkilotlari tomonidan "Yo'l xaritasi" va hududiy chora-tadbirlar rejalarida belgilangan vazifalarning sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilish va muvofiqashtirish uchun mas'ul etib belgilansin.

10. Respublika kengashi (A.Aripov), Toshkent arxitektura-qurilish universiteti (B.Tulaganov) 2024-yil 1-avgustga qadar Respublika kengashi a'zolari hamda sohaga mas'ul vazirlik va idoralar mutaxassislarini seysmik xavfsizlikni ta'minlash va qurilish nazorati sohasi bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlarga qisqa muddatli xizmat safariga yuborishni tashkil etsin.

Respublika kengashi a'zolari hamda sohaga mas'ul vazirlik va idoralar mutaxassislarini xorijga yuborish bilan bog'liq xarajatlarni (transport, mehmonxonona, kunlik va boshqalar) Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan hisobidan qoplanishi belgilansin.

11. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan birgalikda 2024-yil 1-mayga qadar hududlarning zilzilaga tayyorgarlik ko'rish rejalarini tasdiqlash va qonunchilikka muvofiq ushbu reja asosida aholini zilzilaga tayyorlash ishlarini tashkil etib borsin.

12. Hududlarda kuchli zilzilalarga tayyorgarlik ko'rish ishlarini aniq ilmiy prognozlariga asosan tashkil etish maqsadida 2024-yil 1-maydan boshlab:

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Seysmoprognozistik monitoring respublika markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) tomonidan zilzila xavfi va prognozga oid xulosalarni har oyda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklariga kiritish amaliyoti yo'lga qo'yilsin;

xulosalarda kuchli zilzila xavfi haqida ogohlantirish bo'lganda, tegishli hududlar rahbarlari tomonidan hududlarning zilzilaga tayyorgarlik ko'rish rejalariga muvofiq ishlar tashkil etilsin.

Mazkur bandning to'liq va so'zsiz ijrosini ta'minlash uchun mas'ullar etib Favqulodda vaziyatlar vazirligi Seysmoprognozistik monitoring respublika markazi (Q.Qo'chqorov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari belgilansin.

13. 2024-yil 1-iyuldan boshlab respublika hududida bo'lib o'tgan zilzilalar monitoringi, ularning ilmiy tahlili va faol tektonik yer yoriqlarining harakatlari orqali yaqin kelajakda kutilayotgan kuchli zilzila xavfi bor hududlarni aniqlash amaliyoti yo'lga qo'yilsin.

Bunda: seysmoprognozistik monitoring amalga oshirilishini tashkil etish, bo'lib o'tgan zilzilalarning raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirish va qayta ishlash — Markaz tomonidan;

zilzilalarning vujudga kelish mexanizmi, darajasi va zilzila darakchilarining turli geodinamik jarayonlarda namoyon bo'lishi, shuningdek, yaqin kelajakda kutilayotgan kuchli zilzila xavfi bor hududlarni aniqlash — Fanlar akademiyasi tomonidan amalga oshirilishi belgilansin.

Kuchli zilzila xavfi bor hududlar aniqlanganda, bu haqidagi ma'lumotlar zudlik bilan Respublika kengashiga kiritib borilsin.

14. 2024-yil 1-maydan boshlab har bir hududda kuchli zilzilada aholini qutqarish ishlariga jalb etish uchun volontyorlik guruhlarini shakllantirish amaliyoti yo'lga qo'yilsin. Bunda volontyorlik guruhlariga jalb qilingan fuqarolarga har chorakda qonunchilikka muvofiq kuchli zilzilada harakatlanish qoidalari va tartibi o'rgatilib, bu yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalari oshirib borilsin.

Mazkur bandeda nazarda tutilgan amaliyotni to'liq joriy etish, volontyorlar guruhlari faoliyatini doimiy rag'batlantirib borish

uchun mas'ul etib Favqulodda vaziyatlar vazirligi (A.Qo'ldashev) va Yoshlar ishlari agentligi (A.Sa'dullayev) belgilansin.

15. Fanlar akademiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining Fanlar akademiyasi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Zilzila muhandisligi olimlari assotsiatsiyasini (keyingi o'rinlarda — Assotsiatsiya) tashkil etish to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin.

Assotsiatsiyaga 16-ilovaga muvofiq asosiy vazifalar yuklatilsin.

16. Quyidagilar: Assotsiatsiya vazirligi va idoralarning sohaga mas'ul mutaxassislari va olimlar hamda xorijiy mutaxassislardan iborat tarkibda Fanlar akademiyasi tomonidan Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda shakllantirilishi va har uch yilda yangilab borilishi belgilansin;

Assotsiatsiya tomonidan har chorakda tayyorlanadigan takliflar Respublika kengashi tomonidan har yarim yilda muhokamadan o'tkazilishi va asoslangan takliflar zudlik bilan amalga oshirilishi ta'minlansin.

17. Seysmik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mohiyatini aholi va keng jamoatchilikka tushunarli tarzda yetkazish ishlarini tashkil etish maqsadida:

a) O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A.Djurabayev): Favqulodda vaziyatlar vazirligi (A.Qo'ldashev) bilan hamkorlikda fuqarolarning zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanishiga bag'ishlangan ko'rsatuvlar, lavhalar, roliklar va eshittirishlar tayyorlanishi;

ishlab chiqilgan media mahsulotlar Milliy teleradiokompaniyaning barcha tele- va radiokanallarida tizimli ravishda efirga uzatilishini ta'minlansin;

b) Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A.Xodjayev) Favqulodda vaziyatlar vazirligi (A.Qo'ldashev) bilan hamkorlikda ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda seysmik xavfsizlik tadbirlarini amalga oshirish jarayonlari, shu jumladan, fuqarolarning zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanishi bo'yicha tashkil etilayotgan qo'mondonlik-shtab, maxsus-taktik va obyekt o'quv mashqlari haqidagi to'liq ma'lumotlarning keng yoritilishini tashkil etsin.

18. Fanlar akademiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasi takliflar kiritilsin.

19. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib favqulodda vaziyatlar vaziri A.X.Qo'ldashev hamda qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri B.I.Zakirov belgilansin.

Qaror ijrosi uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijadorligi to'g'risida har yarim yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritib borilsin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 17-aprel

QUR'ONI KARIMNING
NOYOB NUSXASI
ZOMINDAGI MASJIDGA
TOPSHIRILDI

Qo'lyozmaning Sankt-Peterburgdagi Sharq qo'lyozmalari institutida Ye-20 inventar raqami bilan saqlanayotgan qismi 81 sahifadan iborat bo'lib, matnlar arab xatining kufiy-hijoziy yozuvda sayqallangan teri — pergamentga bitilgan. Qo'lyozmaning charam muqovasi XIV asrga tegishli bo'lib, u XVII asr o'rtalarida ta'mirlangan.

Ushbu sahifalardan Qur'oni karimning 44 ta surasi o'yatildi (shundan 22 tasi to'liq) o'rin olgan. Yozuvdagi farqlarga qaraganda, bu qo'lyozma ikki nafar kotib tomonidan ko'chirilgan.

Ekspeditsiya natijasida olimlar O'zbekistonda va Rossiyada saqlanayotgan Qur'on sahifalari aynan bitta qo'lyozmaga tegishli ekanini aniqlashdi.

2000-yilning may oyida rossiyalik va niderlandiyalik olimlarning izlanishlari natijasida Groningen (Niderlandiya) universiteti izotop tadqiqotlari markazida mazkur qo'lyozma pergamentning namunalari zamonaviy texnikalar yordamida radiokarbon tahlildan o'tkazildi. Tekshiruv natijalariga ko'ra 95,4 foiz aniqlikda ushbu qo'lyozma milodiy 775 — 995-yillar oraliqida ko'chirilgan bo'lishi mumkinligi haqida xulosa berildi. Olimlar ushbu xulosaga tayanib, qo'lyozma VIII asrning so'nggi choragiga tegishli, degan to'xtamga kelishgan. Bu xulosani fransuz sharqshunosi F. Derosh ham tasdiqlaydi.

Keyingi yillarda Yurtboshimizning tashabbusi bilan barcha sohada bo'lgani kabi diniy-ma'rifiy yo'nalishdagi boy tarixiy merosimni tiklash, xalqimizga yetkazish va targ'ib etishga jiddiy ahamiyat berilmoqda va bu borada ko'p ishlar qilinmoqda. Jumladan, mamlakatimiz bo'yicha 900 ga yaqin masjidlar yangitdan

bunyod etildi, qayta tiklandi va ta'mirlandi, Haj va Umra ziyoratlariga borish uchun imkoniyatlar keskin oshirildi, buyuk aziz avliyolarimizning qadamjolari har tomonlama obod qilindi. Shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy markazlari hamda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi. Diniy-ma'rifiy yo'nalishdagi manbalar nashr qilinmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, "Katta Langar Qur'oni"ning mavjud sahifalari yaxlit kitob holida to'planib, uning faksimile nusxasi Avstriya poytaxti Vena shahrida yuksak matbaa sifati bilan tayyorlanganini ta'kidlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning topshirig'iga binoan 17-aprel kuni Jizzax viloyatining Zomin tumanida ana shu noyob Qur'on nusxasini "Ma'rifatli" jome masjidiga topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbir mamlakatimizda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, bu boradagi boy merosimni tiklash va targ'ib etish, uni xalqimizga, kelajak avlodlarga bezavol yetkazish bo'yicha so'nggi paytda olib borilayotgan keng ko'lami ishlar, "Katta Langar Qur'oni"ning tarixiy, diniy va ilmiy ahamiyati haqida atroflicha so'z yuritildi.

Qur'oni karimning mazkur nusxasi "Ma'rifatli" jome masjidiga topshirildi. Jizzax viloyati bosh imom-xatibi M. Jabborov bu noyob sovg'ani qabul qilib olar ekan, viloyat mo'min-musulmonlari nomidan davlatimiz rahbariga chuqur minnatdorlik bildirdi.

Marosimda Prezident maslahatchilari X. Sultonov, M. Kamilov, Jizzax viloyati hokimi E. Saliyev va boshqalar ishtirok etdi.

O'ZA.

TOSHKENT – MDHNING BIRINCHI YOSHLAR POYTAXTI

Tadbir

O'tgan yilning 8-iyunida Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hukumat rahbarlari kengashining majlisida 2024-yil "Toshkent shahri — MDHning yoshlar poytaxti" deb e'lon qilingandi.

Shu munosabat bilan poytaxtimizda "Toshkent — Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining birinchi yoshlar poytaxti" deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Unda MDHga a'zo mamlakatlarning yoshlar siyosatiga mas'ul davlat organlari va yoshlar jamoat tashkilotlari rahbarlari, faol yigit-qizlardan iborat xorijlik mehmonlar qatnashdi.

"Toshkent yoshlarni sevadi. Yoshlar, do'stlik, tinchlik va taraqqiyot uchun birlashaylik" shiori ostida tashkil etilgan tadbir davomida delegatsiyalar vakillari dastlab "Yangi O'zbekiston" bog'iga tashrif buyurdi. Muhtasham badiiy obida — Mustaqillik monumenti poyiga gul qo'yib, bog' hududiga daraxt ekdi.

Tadbirlar Yoshlar ijod saroyida davom etdi. Bu yerda "Toshkent — MDH yoshlar poytaxti monumenti" ochildi. Shundan so'ng qatnashchilar Yoshlar ijod saroyidagi ijodkor yoshlar markazi faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

— 2024-yilda Toshkentning MDH yoshlar poytaxti deb e'lon qilinishi mamlakatimizda navqiron avlodga

berilayotgan e'tiborning yuksak samarasi, — deydi Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev. — Ushbu tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad azim poytaxtimizda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlarni jahon hamjamiyatiga tanitish, bir-birimiz bilan tajriba almashish va o'zaro do'stlik aloqalarini yaxshilashdan iborat.

Majmuada taqdimotlar, texnologik, hunarmandchilik va tadbirkorlik ko'rgazmalari qatnashchilar e'tiboriga havola etildi.

Tadbir doirasida MDHga a'zo davlatlar yoshlar jamoat tashkilotlari forumi o'tkazildi. Unda uchta yo'nalish — sifati ta'lim, volontyorlik va ekologiya bo'yicha sessiyalarga bo'lingan holda xorijlik yoshlar jamoat tashkilotlari vakillari va faol yigit-qizlar o'z ma'ruzalari bilan chiqish qilishdi.

MDH Yoshlar Kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda

11 ta muhim masala muhokama etildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatiga bag'ishlangan taqdimot uyushtirildi, MDHda Volontyorlik harakati yili doirasida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha chora-tadbirlar rejasi hamda joriy yilda "MDH uchun 100 g'oya" xalqaro loyihasining mahalliy bosqichini o'tkazish kabi mavzularda suhbatlashildi.

Delegatsiya vakillari Toshkent shahrida yoshlarning ta'lim olishi, hordiq chiqarishi uchun yaratilgan qulayliklar, xususan, Respublika bolalar kutubxonasi, Innorexopark va IT-park faoliyati bilan tanishdi.

Poytaxtimizning diqqatga sazovor joylariga sayohat mehmonlarda yorqin taassurot qoldirdi.

Rahmatjon BOBOJONOV
("Xalq so'zi").



Taraddud

Samarqandda Osiyo xotin-qizlari anjumani o'tkaziladi

Xabaringiz bor, shu yil 13-14-may kunlari Samarqand shahrida "Xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga mintaqaviy yondashuv" mavzuida Osiyo xotin-qizlari forumi o'tkaziladi. Ayni chog'da bu nufuzli anjumanni yuqori saviyada o'tkazish maqsadida keng ko'lami tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Ushbu forumni o'tkazish tashabbusi BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mintaqa mamlakatlari yetakchi ayollarining bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvi hamda iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada kengaytirish borasida o'zaro tajriba almashuvini yo'lga qo'yish maqsadida ilgari surilgan edi.

Anjumanda Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo mamlakatlari parlamentlarining ayol a'zolari, hukumatlari rahbarlari, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari xodimlari, ishbilamon ayollar, siyosatshunoslari, olimlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar vakillari qatnashishi kutilmoqda.

Forum o'nta parallel sessiya doirasida o'tkaziladi. Ularda xotin-qizlarning fan, ta'lim va innovatsiya faoliyatidagi ishtiroki, raqamli texnologiyalardan foydalanishi, hozirgi global iqtisodiyotda ayollarning iqtisodiy imkoniyatini kengaytirish orqali kambag'allikni kamaytirish, tadbirkorlik, yetakchilik va innovatsiyalarga jalb etish masalalari ko'rib chiqiladi.

Qolaversa, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda xotin-qizlar ishtiroki masalasi urg'u beriladi. Xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, biznes va jamiyatda ularning ishtirokini rag'batlantirishda parlamentlarning o'ri hamda genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish, moliyaviy imkoniyatdan foydalanishda gender tafovutni bartaraf etish, xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakliga barham berish masalalari ham muhokamalar markazida bo'ladi.

Shuningdek, "yashil" iqtisodiyotni keng targ'ib etish hamda iqlim o'zgarishining mintaqadagi gender muammolarga ta'siri, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoyalashda nodavlat notijorat tashkilotlarining ilg'or tajribasi va innovatsion yondashuvlar tahlilidan o'tkaziladi.

Forum yakunlari bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilinishi ham ko'zda tutilgan.

"Xalq so'zi".

Parlament so'rovi

Yurtimizning hayvonot va o'simliklar dunyosi qanday himoyalanoqda?

Yodingizda bo'lsa, Oliy Majlis Senati ellik birinchi yalpi majlisida Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (METH)ning sifat tarkibini yaxshilash, o'simlik va hayvonot dunyosini asrash hamda kadastrini yuritish holati yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborish masalasi ko'rib chiqilgan edi.

Mamlakatimiz biotimoxilligi o'ziga xos bo'lib, noyob hayvonot va o'simlik dunyosiga ega. Hozirda respublikamiz hududida 4,4 mingdan ortiq o'simlik va 15 mingdan ziyod hayvonot turlari aniqlangan.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan hayvonlar (umurtqali) turlarining 83 foizi va o'simlik turlarining 89 foizi qamrab olingan. Ular muhofazasi yuzasidan ham izchil sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Biroq shu kabi ijobiy ishlarga qaramay, METHda biotimoxillikni asrash, ularning sifat tarkibini yaxshilash, o'simlik va hayvonot olami vakillari kadastrini yuritilishi bilan bog'liq muammoni holatlar ham yo'q emas. Kamiga turli tabiiy va antropogen omillar tufayli hayvonot va o'simlik olami turlari soni kamayib, yashash muhitlaridagi shart-sharoit yanada keskinlashmoqda.

Qolaversa, inqirozga uchragan maydonlarni qayta tiklash yumushlari amalga oshirilganligi sababli shamol va suv ta'sirida tuproq eroziyasi kuchayib, cho'llanish va chang-to'zonlar hosil bo'lishi ortib borayotir.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning biologik xilmaxilligi, degradatsiya jarayonlari va ularning xo'jalik imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmayapti. Sohada mutaxassislar tayyorlash tizimi yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi bois malakali kadrlar yetishmovchiligi ham yuzaga kelgan.

Shu kabi omillardan kelib chiqqan holda, Hukumatga parlament so'rovi yuborildi.

So'rovda mahalliy va respublika darajasidagi METH soni, yer maydonlari, jumladan, ulardagi yer-suv resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosining umumiy holati, biologik xilmaxillikni va ekotizimlarni saqlash hamda ularni oqilona foydalanishga yo'naltirilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi masalasi ko'tarilgan.

Bundan tashqari, brakonyerlik, hayvonot va o'simlik dunyosi kontrabandasi, o'simlik dunyosi turlarining noqonuniy kesilishi, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, biologik xilmaxillikning zamonaviy indikatorlarini ishlab chiqish, hayvonot dunyosi obyektlarini davlat kadastrini hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni raqamlashtirish holati yuzasidan izohlar so'ralgan.

Shuningdek, METHda davlat nazoratini kuchaytirish, noqonuniy faoliyat, xususan, yerlarni o'zbo'shimchilik bilan o'zlashtirish, chorva mollarini boqish kabi huquqbuzarlikka chek qo'yish, yong'in xavfsizligini kuchaytirish, yil mavsumlarida hayvonlar maxsus oziqlanadigan joylarni tashkil etish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarga e'tibor qaratilgan.

Aytish joizki, parlament so'roviga keladigan Hukumat javobi Oliy Majlis Senatining yalpi majlisida muhokama qilindi.

"Xalq so'zi".

TO'QIMACHILIK — SANOAT DRAYVERI

Ma'lumki, keyingi yillarda barcha sohada olib borilayotgan islohot va yangilanishlar hisobiga to'qimachilik sanoatining drayver tarmoqlaridan biri sifatida o'zini namoyon etmoqda. Buni ayni paytda mazkur yo'nalishda faoliyat yuritayotgan klasterlar tomonidan to'lani yetishtirishdan tortib, to tayyor mahsulotni eksport qilguncha bo'lgan jarayon to'liq qamrab olingani misolida ham ko'rish mumkin.

Kuni kecha Prezidentimiz raisligida to'qimachilik sohasida eksport va investitsiya hajmlarini oshirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda ham bu yo'nalishda qo'lga kiritilayotgan yutuqlar alohida ta'kidlab o'tildi.

Qayd etilganidek, o'tgan yili to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish 94 trillion so'm'ga yetib, so'nggi yetti yilda 4,2 baravar oshgan. Tarmoqdagi eksport 2023-yilda 3,1 milliard dollar bo'lgani ham e'tiborga molik.

Albatta, ushbu natijalar o'z-o'zidan bo'lib qolayotgani yo'q. Bu borada davlatning doimiy ko'magi hamda yaratib berilayotgan sharoit va imtiyozlar o'ri beqiyos.

Davlatimizning bu boradagi e'tibori bugun jahon siyosati va iqtisodiyotida kuzatilayotgan beqaror vaziyat va har qanday mahsulotga bo'lgan talab keskin pasayib borayotgan bir sharoitda yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, davlatimiz rahbari tomonidan jahon to'qimachilik bozoridagi kuchli raqobat sharoitida to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash uchun tegishli

Nurmuhammad OCHILOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Uzoq yillik orzu-umidlar ro'yobining huquqiy asosi

Insonning o'z hayotidan rozi bo'lib umrguzaronlik qilishi uchun ko'p narsa shart emas, aslida. O'z uyi, tinch xonadoni bo'lsa, ko'ngli to'q, ertangi kunga ishonch bilan yashaydi. O'lasida xotirjamlik, ishida unum bo'ladi.

"Inson qadri uchun" tamoyili — amalda

Ammo o'zi yashayotgan uyda egalik huquqi, ya'ni kadastr hujjati bo'lmasa-chi?! Unda insonning chinakam baxtni his qilishi juda mushkul. Chunki ilgari oddiy, qishloqda yashovchi fuqarolar uchun yer uchastkasini, uy-joyini davlat ro'yxatidan o'tkazib, egalik huquqini rasmiylashtirish deyarli imkonsiz edi. Natijada ko'plab yurtdoshlarimiz o'z mablag'lariga qurgan uy-joyiga egalik huquqini ololmay sarsongardon bo'ldi, turli qiyinchiliklarga duch keldi.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki davridayoq islohotlarni ayni shu og'riqli nuqtadan boshladi. 2018-yilda Prezident Farmoni bilan o'tkazilgan bir martalik umumdavlat aksiyasi doirasida 621 ming nafardan ziyod fuqarolarning o'zbo'shimchilik bilan egalangan yer uchastkasida tegishli ruxsatnomasiz qurilgan uy-joylariga nisbatan egalik huquqi e'tirof etilib, kadastr hujjatlari rasmiylashtirib berildi.

Albatta, bu juda katta sa'y-harakat bo'lib, barchasi "Inson qadri uchun" degan hayotiy tamoyil asosida amalga oshirildi. Biroq taassufki, ushbu aksiyadan ko'pchilik fuqarolarimiz samarali foydalana olishmadi. Natijada bugungi kunga qadar 4 millionga yaqin yurtdoshlarimiz uy-joylarini kadastr qilishda idorama-idora yurib sarsongardon bo'layotgandi. Prezident tashabbusi bilan bu muammoga ham butunlay barham berilmoqda.

Qonunchilik palatasining yaqinda bo'lib o'tgan majlisida deputatlar tomonidan qabul qilingan "O'zbo'shimchilik bilan egalab olingan yer uchastkalari bilan hamda ular qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonun davlatimiz rahbari tashabbusining amaliy ifodasi sifatida aholi kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ayni chog'da saylovchilar bilan uchrashuvlar davomida ham bugun yuqori muvofiqlik bo'yapmiz. Fuqarolarimiz

imtiyoz berishga qaratilgan bir qator takliflar ilgari surildi. Buni soha rivoji uchun ayni muddao bo'ldi, deyish mumkin. Negaki, Prezident va Hukumat darajasidagi bunday qo'lovlar tarmoqning hali ishga solinmagan imkoniyatlari ro'yobi sari yo'l ochadi.

Bundan tashqari, tadbirkorlarning eksport bilan shug'ullanishda boshqa mamlakatlar tadbirkorlari bilan raqobat qilish imkoniyatlarini oshirish maqsadida ularning transport xarajatlarining 50 foizi qoplab beriladi. Qolaversa, eksport qilingan mahsulot qiymatidan kelib chiqib subsidiya ajratiladi hamda eksport qilingan mahsulotning 70 foizi miqdorida kreditlar yo'naltiriladi. Bu tadbirkorlarga qanchalik imkoniyat yaratishini tushunish qiyin emas. Ya'ni tadbirkorlarga qo'shimcha aylanma mablag'larni shakllantirish hamda eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi. Ayni chog'da bu sohaning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshiradi.

Ko'rinib turibdiki, to'qimachilik sohasini yanada rivojlantirish uchun unga yangi imkoniyat va qulayliklar yaratilayotir. Bu esa tez orada o'z natijasini berishi muqarrar.

Munosabat

YANGI IMKONIYATLAR ISHGA SOLINADI

Agar e'tibor beriladigan bo'lsa, O'zbekistonning to'qimachilik salohiyati va imkoniyatlari salmoqli ekanini ko'rish mumkin. Ammo biz bu salohiyatdan unumli foydalanyapimizmi? Bu borada oldimizda qanday dolzarb vazifalar turibdi?

Kuni kecha Prezidentimiz raisligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishi shu kabi savollarga javob topish imkonini berdi. Unda iqtisodiyotimizning eng muhim tarmoqlaridan bo'lgan to'qimachilik sohasida eksport hamda investitsiya hajmlarini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi, g'oya va tashabbuslar ilgari surildi.

Darhaqiqat, to'qimachilik yurtimiz hududlarida keng tarqalgan va aholini eng ko'p band qilgan salohiyatli sanoat tarmog'i hisoblanadi. Shu kechakunduzda respublikamizda 6 mingdan ziyod korxonalarda qariyb 600 mingga yaqin kishilar mehnat qilmoqda.

Davlatimiz rahbarining alohida e'tibori va tashabbuslari tufayli so'nggi yillarda investitsiyalar va yangi texnologiyalar faol jalb etildi. Pirovardida sohada

samaradorlik ko'lami va natijadorlik keskin oshdi. Misol uchun, 2023-yilning o'zida 8 milliard 200 million dollarlik to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu kichkina raqamlar emas.

Qolaversa, son bilan birga sifat ham ortishiga erishilib, chet davlatlarda mahsulotlarimizga bo'lgan talab oshib, eksport ko'lami o'smoqda. Birgina o'tgan yilning o'zida tarmoqdagi eksport 3,1 milliard dollarni tashkil qilgan bunga yaqqol misoldir.

Yig'ilishda ana shu yutuq va natijalar e'tirof etilgani holda istiqboldagi vazifalarga ham urg'u berildi. Negaki, yurtimizda bu borada hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko'p. Bu esa mutasaddilar oldiga bir qator yangi vazifalarni qo'yadi.

Avvalo, arzon bozorlardan qiymati baland bo'lgan

bozorlarga kirib borish zarur. Rivojlangan davlatlar bozorida esa xalqaro standart hamda sertifikatlar talab etiladi. Biz ana shu talablarga tayyor bo'lishimiz kerak.

Bu haqda bejiz gap ochmadik. O'zbek paxtasiga xalqaro boykot bekor qilinch qurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va tekstil korxonalari faoliyatiga dunyoning rivojlangan brendlari qiziqish bildira boshladi. Ayni chog'da ular tomonidan xalqaro standart va sertifikatlar talab etilishi ham bor gap. Ammo, afsus bilan aytamizki, bunday talablarga bizdagi 175 ta korxonaga javob beradi xolos.

Prezidentimiz ushbu holatdan kelib chiqib muasaddilar oldiga bir qator kechiktirib bo'lmaydigan yangi vazifalarni qo'ydi.

Mazkur vazifalar jirosi jarayoni nafaqat mutasaddilar, ayni paytda biz, xalq vakillaridan ham katta mas'uliyat talab etishini yaxshi tushunamiz.

Baxtiyor UMAROV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Qonun tashabbuskoridan — quyi palataga

XALQARO TADQIQOT MARKAZI USTAVI RATIFIKATSIYA QILINADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasida "Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha xalqaro tadqiqot markazi (ICCROM) Ustavini (Rim, 2013-yil 29-noyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun loyihasi dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Ma'lum qilinganidek, "ICCROM" — ta'lim, axborot almashuvi, tadqiqot va hamkorlik orqali jahon madaniy merosini saqlash bilan shug'ullanuvchi hukumatlararo tashkilot hisoblanadi. 1959-yilda tashkil etilgan markazning bosh qarorgohi Rim shahrida joylashgan. Unga a'zo davlatlar soni 142 ta bo'lib, o'z vakolati doirasida UNESCO maslahatlashuv organi sanaladi va umumjahon madaniy meros obyektlarida amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihalarni ko'rib chiqishda, ular bo'yicha xulosa hamda tavsiyalar tayyorlashda ko'mak beradi.

Yurtimizning "ICCROM"ga a'zo bo'lishi madaniy yodgorliklarni saqlash va tiklash bo'yicha o'zaro hamkorlikdagi ishlarni tashkil etish, O'zbekiston madaniy merosini jahon darajasida keng targ'ib qiladigan adabiyotlar yaratish, madaniy yodgorliklarni saqlash va tiklash bo'yicha tadqiqotlar targ'iboti, madaniy meros muhofazasi bilan shug'ullanuvchi muassasalarni zarur adabiyotlar bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, madaniy yodgorliklarni saqlash bo'yicha tadqiqotlarni rivojlantirish, mutaxassislarning malakasini yuksaltirish, xalqaro tajribani o'rganish, madaniy merosni saqlash, tiklash va namoyish etishga aloqador muassasalar faoliyatini samaradorligini oshirish tizimini takomillashtiradi.

Qonun loyihasi ayni vaqtda mas'ul quymita tomonidan siyosiy partiyalar fraksiyalarini yig'ilishlari kun tartibiga muhokamadan o'tkazish uchun kiritishga tayyorlanmoqda.

"Xalq so'zi".



ICCROM

Sport xabarlari

Parij Olimpiadasi sari birinchi qadam

Shu kunlarda Qatar yashil maydonlarida 23 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasida Osiyo kubogi bahslari bo'lib o'tmoqda.

E'tiborlisi, Parij Olimpiadasiga yo'llanma beruvchi ushbu musobaqaning birinchi turida O'zbekiston terma jamoasi Malayziya terma jamoasiga qarshi bahs olib borib, 2:0 hisobida g'alaba qozondi. Uchrashuvda gollarni raqib darvozasiga Jasur Jaloliddinov (penalti) va Ulug'bek Hoshimov

kiritdi. Shu tariqa yosh futbolchilarning Parij Olimpiadasida sari dastlabki qadamni tashladi.

Eslatib o'tamiz, vakillarimiz navbatdagi turda Kuvayt terma jamoasiga qarshi bahs olib boradi. Uchrashuv 20-aprel kuni Toshkent vaqti bilan soat 20:30 da boshlanadi.



Futzal: hamyurtlarimiz zafarli yurishini boshladi

Tailandda futzal bo'yicha navbatdagi Osiyo kubogi bahslari qizg'in kechaypti. Ushbu nufuzli musobaqada saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 16 terma jamoa g'oliblik uchun kurash olib bormoqda.



Qur'aga ko'ra, O'zbekiston terma jamoasi "V" guruhidan joy olgan bo'lib, keyingi bosqichga chiqish uchun Saudiya Arabistoni, Iroq va Avstraliyaga qarshi bahs olib bormoqda.

Kecha terma jamoamiz musobaqa doirasidagi ilk uchrashuvni Avstraliyaga qarshi

o'tkazdi. Keskin kurashlarga boy o'tgan y'inda vakillarimiz 3:2 hisobida g'alabaga erishdi. Gollar muallifi Akbar Usmonov va Dilshod Rahmatov (dubl) bo'ldi.

O'zbekiston terma jamoasi 19-aprel kuni Iroq, 21-aprel kuni esa Saudiya Arabistoni terma jamoalariga qarshi bahs olib boradi. Har ikki uchrashuv Toshkent vaqti bilan soat 19:00 da boshlanadi.

Kecha musobaqa doirasida bo'lib o'tgan uchrashuvlarda quyidagi hisoblar qayd etildi:
Vyetnam — Myanma 1:1
Tailand — Xitoy 3:1
Saudiya Arabistoni — Iroq 1:5
Ma'lumot o'rinda aytish joiz, O'zbekiston terma jamoasi futzal bo'yicha Osiyo kubogi bahslarida 4-marta kumush, 5-marta bronza medalini qo'lga kiritgan.

"Xalq so'zi".

